

RAQAMLI DAVRDA INSON HUQUQLARI VA HIMOYA MUAMMOLARI

Valiyeva Adiba Alisherovna

Nizomiy nomidagi O'zMPU talabasi Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli davrda inson huquqlarining holati, xususan, internet va ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy himoya bilan bog'liq muammolar tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, so'z erkinligi va kiberjinoyatlarga qarshi kurashishning huquqiy jihatlari ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** inson huquqlari, raqamli davr, internet, ijtimoiy tarmoqlar, huquqiy himoya, shaxsiy ma'lumotlar, kiberxavfsizlik, so'z erkinligi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется состояние прав человека в цифровую эпоху, в частности, проблемы, связанные с правовой защитой в интернете и социальных сетях. В контексте стремительного развития информационных технологий освещаются правовые аспекты защиты персональных данных, свободы слова и борьбы с киберпреступностью.

**Ключевые слова:** права человека, цифровая эпоха, интернет, социальные сети, правовая защита, персональные данные, кибербезопасность, свобода слова.

**Abstract:** This article analyzes the state of human rights in the digital era, in particular, the problems associated with legal protection on the Internet and social networks. In the context of the rapid development of information technologies, the legal aspects of personal data security, freedom of speech and the fight against cybercrime are highlighted.

**Keywords:** human rights, digital era, Internet, social networks, legal protection, personal data, cybersecurity, freedom of speech.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish masalasi muhim hisoblanib kelinmoqda negaki, internet va ijtimoiy tarmoqlar insonlarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanganligi barchamizga ma'lum. Ularning huquqiy maqomi va xavfsizligini ta'minlash dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi, so'z erkinligi va axborot xavfsizligi bilan bog'liq muammolar zamonaviy huquq tizimida muhim o'rin egallaydi. Qadimgi jamiyatda huquqlar asosan ijtimoiy tabaqalar va an'anaviy normalar asosida tartibga solinib kelingan lekin vaqt o'tishi bilan yozma qonunlar paydo bo'lib, inson huquqlarini tartibga solish tizimi shakllana boshladi va hozirgi kunga kelib, raqamli davr esa ushbu tarixiy rivojlanishning yangi bosqichi bo'lib kelmoqda, unda huquqiy normalar virtual makonda ham amal qilishi zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlarda inson huquqlarini himoya qilish muammolari, ularning tarixiy ildizlari hamda zamonaviy huquqiy mexanizmlar tahlil qilinadi.

Demak, inson huquqlari tushunchasi tarix davomida bosqichma-bosqich shakllangan bo'lib, dastlabki huquqiy normalar qadimgi davlatlarda yuzaga kelgan.

Shuningdek, dastlabki qonunlar jamiyatdagi tartibni saqlash va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan edi. Keyinchalik inson huquqlari kengayib borib, fuqarolarning erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qila boshladi.

Zamonaviy taraqqiyoti shiddati inson huquqlari tushunchasini olam sarhadlariga qadar kengaytirdi va bugungi kun foydalanuvchisi endilikda nafaqat real hayotda, balki virtual muhitda ham daxlsiz huquq va erkinliklar sohibidir, biroq ushbu raqamli konvertatsiya o'zi bilan birga jiddiy xatarlarni ham yetaklab keldi. Jumladan, shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy yig'ilishi va tarqatilishi, kiberjinoyatchilikning avj olishi, hamda internet maydonidagi haqorat va yolg'on axborotlar oqimi jamiyatning ma'naviy va huquqiy barqarorligiga rahna solayotgan o'g'riqli nuqtalaridir. Bundan tashqari, so'z erkinligi ham raqamli makonda murakkab masalaga aylangan. Zero, internet bir tomondan har bir insonga o'z fikrini erkin ifoda etishdek keng imkoniyatlar eshigini ochgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ushbu erkinlik noto'g'ri ma'lumotlar tarqalishi, kiberbulling va ijtimoiy nizolarning kuchayishiga zamin yaratmoqda va aynan shu sababli, bugungi kunda davlatlar tomonidan internet faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar ishlab chiqilmoqda.

Shu bilan birga, kiberjinoyatchilik ham zamonaviy huquq tizimi oldida turgan jiddiy muammolardan biriga aylandi, firibgarlik, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash, zararli dasturlar tarqatish kabi jinoyatlar inson huquqlariga bevosita jiddiy tahdid solayotgan bir paytda, kibirxavfsizlik sohasi huquqiy mexanizmlarning ajralmas qismi sifatida takomillashib bormoqda. Binobarin, raqamli davr inson huquqlarini himoya qilishning yangi bosqichni boshlab berdi va bu jarayonda tarixiy tajriba bilan zamonaviy huquqiy yondashuvlarni o'zaro uyg'unlashtirish bugungi kunning kechiktirib bo'lmas zarurati hisoblanadi.

Raqamli transformatsiya davrda inson huquqlarini ta'minlash masalasi davlat va huquq tarixining uzviy davomidir. Tarix davomida shakllangan huquqiy tamoyillar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, balki yangi sharoitda yanada takomillashmoqda.

Xulosa qilsak, internet va ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy himoyani kuchaytirish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, so'z erkinligini ta'minlash va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish zamonaviy huquq tizimining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Shu bilan birga, bu jarayonda tarixiy tajribadan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, raqamli makonda inson huquqlarini himoya qilish uchun samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish, ularni amaliyotda qo'llash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarur. Bu esa jamiyatda adolat, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni (lex.uz)

3. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni(lex.uz)
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi(lex.uz)